

OILAVIY MUNOSABATLARDA DESPOTIZMNI NAMOYON BO'LISHINING PSIXOLOGIK OMILLARI

Tovbayeva Mukaddam Safarovna.

*Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, psixologiya
kafedrasi katta o'qituvchisi, Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori.*

Tel. 91 525 73 09. tovbayevamuqaddam@samdu.uz

Annotatsiya. Maqolada oilaviy munosabatlarda salbiy sifatlarning nizolarga sabab bo'lishi, despotizmni sodir etilishi oila a'zolarining ruxiy azoblanishiga va shaxs ruhiyatiga ta'sir ko'rsatishi, despotizmni namoyon bo'lishining psixologik omillari haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar. Xulq atvor, shaxs ruhiyati, ichkilik, jabr-zulm qilish, ojiz ahvolda qoldirish, o'ziga bo'ysundirish, asabga tegish.

Аннотация. В статье представлена информация о том, как негативные качества в семейных отношениях вызывают конфликты, как совершение деспотизма влияет на душевные страдания членов семьи и психику личности, психологические факторы проявления деспотизма.

Ключевые слова. Поведение, психика личности, пьянство, угнетение, беспомощность, подчинение, нервное прикосновение.

Annotation. The article provides information on how negative qualities in family relationships cause conflicts, how the commission of despotism affects the mental suffering of family members and the psyche of the individual, psychological factors of despotism.

Keywords. Behavior, personality psyche, drunkenness, oppression, helplessness, submission, nervous touch.

Oilaviy munosabatlarda uchraydigan muammolar o'zining ko'p qirraliligi bilan ajralib turadi. Despotizmning manbai va tabiatini aniqlash ushbu muammoni o'rganishning eng muhim jihatini ifodalaydi. Ushbu masala borasida shaxsning bunday hatti-harakatlarni sodir etishi biologik jihatdan taqozo qilingan va u nasldan naslga o'tishi mumkinligini, shuningdek shaxsdagi tajovuzkorlik xususiyalari ko'p jihatdan irsiy xususiyatlarga bog'liq ekanligini e'tirof etishadi. Despotizm tug'ma xususiyat emas, ammo uning paydo bo'lishi uchun zarur shart-sharoitlar yetarli bo'lsa bo'ldi.

Oila muhitidagi zo'ravonlikni eng keskin turi sifatida despotizm yuzaga kelishiga o'z ta'sirini ko'rsatadigan bir qator sabablar mavjud bo'lib, ular sirasiga oiladagi zo'rlik muhitini hukmron bo'lishi; oila boshqaruvchisini ish bilan

ta'minlanmaganligi; oilada tarbiya moddiy manfaatdorlikdan keyingi o'ringa qo'yilganligi; oiladagi ajrashishlar; oila ishtirokchilarini spirtlik ichimliklarga ruju qo'yganligi va boshqalar kiradi.

Avvalo muammoli oila deganda bu oilada ilg'ab bo'lmas tushunarsiz jarayonlar bilan bog'liq xayot tarzini boshidan kechirayotgan oilalar yani oila boshliqlari ichuvchi, narkotik moddalar istemol qiluvchi, xech joyda ishlamaydigan xolatdagi oilalarda kuzatiladi. Bunday xolat oila ichidagi mavjud tuzilmalar o'rtasidagi munosabatlarning buzilishiga olib keladi Er-xotin munosabatlarida tarangliklar, ya'ni stresslarni keltirib chiqaruvchi omillarga eng avvalo ishda haddan ziyod toliqish yoki aksincha, ishsizlik, moliyaviy muammolar va kambag'allik kiradi. Masalan, uzoq muddat davomida ishsiz bo'lish, shug'ullanish uchun tayinli mashg'ulot topolmaslik barcha oila a'zolari ruhiyatiga, ayniqsa, er-xotin munosabatlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Er-xotin o'rtasidagi o'zaro hamkorlik, hamdardlik hissining tobora kamayib ketishiga olib keladi, ular bir-birlariga serzarda, qo'pol bo'lib boraveradi. Bunday xolatlar er-xotin munosabatlarida despotik jarayonni yuzaga kelishiga sabab bo'lishi mumkin. Ma'lumki, spirtli ichimlik iste'mol qilish odamning asabiga ta'sir ko'rsatib, ruhiy ko'tarilish va tormozlanish jarayonini o'zgartirib yuboradi. Ichkilikning ta'sirida oilada bezorilikning sodir etilishi ehtimoli ham ancha yuqori bo'ladi. Ushbu bezorilik harakatlarini sodir etayotgan shaxsning ongida «hech kimdan qo'rqmayman» degan iborani noto'g'ri tushunishi bilan o'z hatti-harakatining oqibatini anglab etolmaslik kabi xususiyatlar namoyon bo'ladi. Shaxs mastlik holatida o'zini idora qila olmaydigan ahvolga tushib qolishi oqibatida zo'ravonlikning vujudga kelishiga olib keluvchi hatti-harakatlar sodir etadi. 70% zo'ravonliklarning ichkilikbozlik oqibatida sodir etilishini ham e'tiborga olish lozim.

Aytish joizki, spirtli ichimlikning iste'mol qilinishi natijasida shaxsda o'z hatti-harakatining oqibatini anglab etmaslik, ayniqsa, uning hulq-atvorida emosional holatlarning salbiy tomonga o'zgarishi kuzatiladi. Hayot tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, mast odamlarning aksariyat qismi jizzaki va qo'pol bo'lib qoladi. Buning natijasida mast kishining ongida jamiyatda o'rnatilgan ahloq-odob normalariga befarqlik va hurmatsizlik bilan qarash xususiyatlari paydo bo'ladi. Ichlikbozlikning ijtimoiy xavfli tomoni shundaki, ichkilikni iste'mol qilgan vaqtda shaxsning ruhiyatida stressli holatlar yuqori bo'ladi. Og'ir hayotiy muammoga duchor bo'lganda (qasd, rashk, adovat, kelishmovchilik, mensimaslik, hiyonat, ishining yurishmasligi, oilada etishmovchilik va qiyinchilik) shaxs o'zini boshqara olmasligi natijasida oilada zo'ravonlikni o'ta vahshiylik bilan sodir etadi.

Ichkilikbozlikning salbiy tomoni shundaki, jamoat tinchligi va xavfsizligi, jamiyatda belgilangan normalarning buzulishiga, ayniqsa oilada o'sib kelayotgan yosh avlodning tarbiyasiga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Ayniqsa, bu illat oilaning buzilishi, ota-onaning farzand tarbiyasiga befarqligi, insoniy fazilatlar va o'zaro mehr-oqibatning yo'qolishiga olib keladi. Zero, har qaysi inson, har qaysi oilaning eng ezgu orzu-maqсадlari, hayotiy manfaatlar avvalambor uning farzandlari timsolida namoyon bo'ladi, ro'yobga chiqadi.

Tahlillarga ko'ra, ichkilikbozlik tufayli oilada er-xotinning o'rtasidagi o'zaro salbiy munosabatlar, farzandlarning ilk bolalik davridan kamsitilishi yoki kaltaklanishi, ruhan haqoratlanishi sababli yuzaga kelgan asoratlar, jarohatlar oqibatlari eng ko'p tarqalgan hodisadir.

Oiladagi zo'ravonlik bilan bog'liq omillar orasida oiladagi moddiy etishmovchilik; aka-ukaning yoki ularning turmush o'rtog'ining, farzandlarining va qaynona-kelinlarning o'rtasidagi turli kelishmovchiliklar; oilada erkakning spirtli ichimliklarni iste'mol qilib, mast holatda turli sabablarsiz nizolarni keltirib chiqarishi yoki ishsizligi; oilalarning, ayniqsa yosh oilalarning ishiga kattalarning yoki qarindosh urug'larning noo'rin aralashuvi; oilada erkak yoki ayolning bir-biriga nisbatan rashk va hiyonat qilishi, bir-biridan jinsiy qoniqish hissining yo'qligi yoxud er-xotin o'rtasida mehr-muhabbatning pastligi; yoshlarning erta turmush qurayotganligi ularning hayotiy tajribasi yo'qligi, uy-ro'zg'or ishlariga tayyor emasligi; oilada qaynona-kelin yoki erining oila a'zolari tomonidan kamsitilishi yoxud unga nisbatan samimiy munosabatda bo'lmaslik holatining mavjudligi; oilalarda azaliy milliy urf-odat va qadriyatlarining e'tirof etilmasligi natijasida oila a'zolari o'rtasida bir-birlarini hurmat qilmaslik yoki tushunish kabi insoniy xislatlarning yo'qligi sabab bo'layotganligini ko'rish mumkin.

Despotik odam boshqalarning shaxsiy chegaralari va erkinliklari to'g'risida tushunchaga ega emas, o'z oilasi a'zolarini shaxsiy mulki sifatida qaraydi. Despot shaxs oilada yaqin ko'rgan kishisini uning o'zigagina tegishli sifatida qaraydi.

Oiladagi despotizm o'z oila a'zolariga hatto o'zaro munosabatlarida ham tanlov imkoniyatini bermaydi, uning oiladagi insonlariga nisbatan munosabati global va asossiz tug'iladi. Oila muhitida despotizm yakka boshqaruvni amalga oshirishda jismoniy va psixologik kuchdan foydalanish orqali tartibni o'rnatish istagi bilan izohlanadi. Odatda, despotlar nazorat qilish uchun ko'proq imkoniyatga ega bo'lish uchun o'zgalarning qadr-qimmatini butunlay yo'q qilishga harakat qilishadi. Garchi munosabatlarning dastlabki bosqichlarida, ular boshqalar haqida g'amho'rlik qilayotgandek o'zini tutsa ham.

Demak, bizning nazarimizda, xududlarning muammoli oilalarida sodir etiladigan zo'rvonlikning despotik xarakterini oldini olish, oila a'zolarining xulq-atvorini boshqarishga yordam berish, zo'rvon oila muhitida voyaga etayotgan farzandni kelgusida hayoti va taqdiriga tuzatib bo'lmas asoratlarni singdirib olmasligi uchun mas'ullikni barcha o'z zimmasiga olishi kerak bo'ladi.

Despotizmga duch kelgan shaxslarda o'ziga ishonch, o'z xulqini o'zi yaxshilash motivlarini shakllantirish orqali ma'naviy sog'lomlashtirish jarayonini tashkil etish, zo'rvonlikka duch kelganlarda kelajakka ishonch darajasini kuchaytirish, ijtimoiy foydali mehnatga, jamoat ishlariga jalb qilish, o'z xulq-atvorini o'zi baholashga o'rgatish, shaxsning ichki ruhiy holatini: maqsadi, hayotga munosabati, o'z-o'ziga ishonchi, irodaviy-hissiy o'zini boshqarishni tahlil etib, shularga mos ravishda maslahatlar berish, maqsadga erishishda hayotda o'z to'g'ri yo'lini topganlar hayotidan misollar keltirib, inontirish; individual ishlash natijasida uning o'z oldiga aniq maqsad qo'yishiga erishish lozim.

Shunday qilib, oiladagi zo'rvonlik eng xavfli holat ekanligi, u tufayli insonlar tinchini, xotirjamligini yo'qotishi, bir qator muammolar girdobiga tushib qolishi, oilasidagi yaqin insoniga tiklab bo'lmas ruhiy, jismiy jarohatlarni yetkazishi muqarrar ekanligi tasdiqlandi.

Adabiyotlar

1. Каримова В. Оила ҳимояси давлат сиёсатининг устувор йўналиши // HUQUQ VA BURCH. – №5. – Т., 2007. – Б. 31.
2. Кадирова А.Т. Ўсмирларда оилавий низолар тўғрисида ижтимоий тасаввурларнинг шаклланиши. дисс. псих. фан. ном. – Т.: 2007. –Б. 36.
3. Мэкс А.М. Социальные условия насилия в семейном поведении (анализ насилия в американской семье): Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата социологических наук. –М., 2003. –С. 3.
4. Файзиева М., Жабборов А. Оилавий муносабатлар психологияси. –Т.: “Янги аср авлоди”, 2007. –Б. 7.
5. Fayziyeva, N. (2024). YOSHLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHNING IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK MUAMMOLARI. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 4(2), 149-155. извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/9805>